

**NUTQDA SO‘ZLAR MA‘NOSI O‘ZGARISHINING INTONATSIYAGA BOG‘LIQ BO‘LGAN
AYRIM JIHATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10113325>

Qosimova Yashnaxon Barakaxo‘jayevna
Andijon davlat chet tillari instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada lingvistik nazariyaga ko‘ra nutq tushunchasi, uning muayyan intonatsion toni orqali so‘zlovchining munosabatini tushinish, ushbu ohang gapda qanday vazifalarni bajara olishi va nutqdagi o‘rni haqida bayon etilgan.*

Tayanch so‘zlar: *lingvistik, nutq toni, intonatsion, ritm, tembr, fraza, artikulyasiya*

Abstract: *In this article, according to the linguistic theory, the concept of speech is explained by understanding the attitude of the speaker through a certain intonation tone, what tasks this tone can perform in a sentence, and its role in speech.*

Key words: *linguistic, speech tone, intonation, rhythm, timbre, phrase, articulation*

Аннотация: *В данной статье, согласно лингвистической теории, понятие речи объясняется через понимание отношения говорящего через определенный интонационный тон, какие задачи этот тон может выполнять в предложении и его роль в речи объясняется через понимание отношения говорящего через определенный интонационный тон, какие задачи этот тон может выполнять в предложении и его роль в речи.*

Ключевые слова: *лингвистический, тон речи, интонация, ритм, тембр, фраза, артикуляция*

“Yangi O‘zbekistonni har tomonlama taraqqiy ettirish, Uchinchi yuksalish davri poydevorini yaratishga qaratilgan tarixiy islohotlar jarayonida o‘zbek tilini va tilni rivojlantirish bo‘yicha belgilab olgan vazifalarni izchil davom ettirish lozim” –deya ta’kidladi muhtaram yurtboshimiz¹.

Darhaqiqat til va til unsurlarini bugungi globallashtirish davrida o‘rganish va uni talqin qilish muhim vazifalardan biriga aylandi.

Til inson hayotida nihoyada muhim rol o‘ynaydigan hodisadir. Kishining butun hayoti til bilan bog‘langan bo‘lib til yordamida kishilar o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, inson tili nihoyat darajada murakkab, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan sifatlarni o‘zida mujassamlashtirgan hodisadir. Til kishilik jamiyatida uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratilgan barcha madniy va ilmiy boyliklarni saqlaydigan va avlodlardan avlodga yetkazib beradigan asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

¹ O‘zbekiston respublikasi prezidenti Sh. Mirziyayev Til bayrami munasabati bilan otkazilga yigilishdagi nutqida

Tilning asosiy vositasi bu nutqdir, yani til so'zlovchining nuttqi orqali yuzaga keladi. shu bois tunq haqida qisqacha to'xtalsak, nutq — [tilning](#) fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakli hisoblanadi. Nutq deganda esa, uning og'zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo'lishidagi jarayonlari nazarda tutiladi, ya'ni so'zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar) tushuniladi. Nutq — tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shakliini ifoda etsa, ohanng (intonatsiya) unga rang va turli tushunchalarni hosil qilishda muhim rol o'ynaydi

Lingvistik nazariyada nutq tushunchasi muayyan til jamoasida qabul qilingan ifoda vositalari tizimi hisoblangan mavhum til tushunchasiga hamda ijtimoiy borliq (hayot)ning eng karakterli ko'rinishlaridan bo'lgan aniq, bir qadar umumiyroqtil tushunchasiga qaramaqarshi qo'yiladi. Boshqa odamlar xulqatvori va faoliyatiga ta'sir ko'rsatish maqsadida ularga axborot, xabar yetkazishga xizmat qiladigan asl Nutq (tashqi nutq), ya'ni ga-pirish, til belgilarining eshitish a'zolari tomonidan idrok qilinadigan (ovoz yozib oluvchi uskunalar yordamida qayd etiladigan va qayta takrorlanadigan) artikulyasiyasi tarzida yoki ushbu belgilarning yozuvda shartli aks etishi tarzida yuzaga chiqadi.

Ma'lumki nutq apparatining ishlashi natijasida tovush hosil bo'lish jarayoni artikulyatsiya deyiladi. Nutq tovushlarining akustik xususiyati ularning kuchli, balandligi, tembri va cho'ziq-qisqaligi bilan ifodalanadi. ²

Intonatsiya (ohang) lotincha intono-baland, talaffuz qilaman degan ma'noni berib, tilshunoslikda –nutqning ohangi, uning maromiy musiqiy tomoni; tovushning navbatmanavbat ko'tarilishi va tushihsi hamda nutqning sintaktik ma'nolari darak so'roq va buyruq gapni ham ifodalaydi. ³

Nutq toni orqali so'zlovchining munosabatini tushinish mumkin yani, baland ovozda nutq so'zlansa bu- ota onaning farzandiga qaratilgan bo'lishi mumkin, yoki do'st, rahbarning xodimiga aytilgan nutqi ekanligini bilish mumkin.

Nutq toni orqali yana biz har bir so'zlovchining o'ziga hos va har biri shaxsiy va abadiy ekanligini kuzatishlarimiz orqali alohida hususiyatlarini bilib olishimiz mumkin masalan: nutq tembri, nutq tezligi, ovozni baland yoki pastligi bularning barchasi bir shahsdan boshqa shaxsda takrorlanmasligini ko'rishimiz mumkin. Masalan 24 yildan beri ko'rishmagan ikki kursdosh telefon orqali gaplashganida ular bir birlarini ko'rmasdan ham kimligini tanib olishdi.

Bunga ko'plab insonlarni hayratlab gapirganini eshitgan edim.

Intonatsiya - lingvistik atama bo'lib, ikki ma'noda qo'llaniladi. Aniqroq aytganda, bo'g'in, so'z va butun gap (ibora) dagi nisbiy ohangdagi o'zgarish tizimi sifatida tushuniladi va yana intonatsiya (lot. intono dan - baland ovozda talaffuz qilaman) degan ma'noni

² Tilshunoslik asoslari I. Yoldashev, O'Sharipova Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2007

berib, nutqni fonetik tashkil qilish vositasi bilan birga *urg'u* supersegmental hodisalar - nutq oqimiga kirmaydigan, lekin unga "ustin qo'yilgan" til vositalarini anglatadi

-Masalan og'zaki nutqda intonatsiyaga qarab so'zlar ma'nosini tushunish mumkin.

Shu ishni sen qilgansan.

–Aslida bu gap darak gap bo'lsada ma'no intonatsiyasiga ko'ra o'zgaradi yani bu so'roq gap manosida ham tushunish mumkin

Yana shu gap intonatsiyasiga ko'ra, kimnidir xatosini ko'rsatish yoki so'kish kabi ma'no kasb etishi mumkin, bu esa gapda frazani hosil qilmoqda

Frazaviy, *urg'u*, melodiya, ritm, intensivlik, temp, tembr kabi prosodik elementlarining birligidan iborat bo'lib, tilda har xil sintaktik, ekspressiv va emotsional ma'nolarni ifodalovchi murakkab hodisa intonatsiya deyiladi.⁴

Abdulla Qodiriyning O'tgan kunlar asarida Xomidboy Otabekga qarab "Yedingku ablax"-degan iborasida intonatsion *urg'u* "yedingku" ga qaratilgan.

Yedingku so'zi kochma manoli ibora bo'lib, ko'pincha ranjish va so'kib berish ma'nosida ifodalanadi.

Bu juftlik aynan mana shu tabiiy tasodif tufayli g'ayrioddiy ekspressivlikka ega bo'ladi. Boshqa tomondan, intonatsion va ritmik harakatlar o'rtasidagi nomuvofiqlik uning ritmik-intonatsion xarakterdagi odatiy to'qnashuvlarini yaratadi; bir tomondan, ular turli xil intonatsion tasvirlar uchun material bo'lib xizmat qilishi mumkin: ohang bir narsani aytadi, takrorlash ma'noni o'zgartiradi, boblabsiz sozi intonatsiya toniniga qarab ikki ma'nodan birini anglatish mumkin ya'ni soz ohangi balandroq chiqsa ranjish, so'kish ma'nosini agar sokin va sekin talaffuz qininsa mamnunlik, maqtash ma'nosini anglatadi.

Tinglovchi uchinchi qatorda yangi otni ham kutadi, lekin allaqachon boshlangan narsaning oxiriga to'g'ri keladi. Boblabsan so'zining ma'nosi ko'p jihatdan ana shunday ritmik-intonatsion to'qnashuvlarga asoslanadi.

Ohang yani intonatsiya (lotincha intonatio, intonardan, shang'illamoq, baland ovozda, ohangdan, tovushdan). 1) ohangni o'rnatish. 2) ohangni belgilovchi ruhoniyning undovlari. 3) tanbeh berish; so'zlarning talaffuzidagi *urg'u*ning xususiyatlari⁵.- Yani baland ovozda talaffuz qilish ma'nosini beradi.

Tilning nutqni organuvchi tovush vositalari majmui bo'lib, uni ishlab chiqaruvchi inson o'z extiyojlari, maqsad va rejalarini amalga oshirish uchun qo'llaydi

Darsga kech qolgan o'qucvhiga nisbatan o'qituvchining "Kelardingizda sekin"- deb aytgan sozi ko'cma ma'noga ega bo'lib, gapni sokish ma'nosida baland ovozda gapirilishi, tonni baland ifodalanishi bilan izohlansa, agar ovoz past ohangni bersa, savol manosini ifodalab nutqda ikki hil unurni o'zida ifodalab keladi.

⁴ Tilshunosliokka kirish A.Sodiqov, Abduazizov. M, Irisqulov Toshkent "O'qituvchi" 1981

1. Talaffuz paytida ohangning ko'tarilishi va tushishiga qarab nutqning ritmik melodik tuzilishi. So'roq, undov, emotsional gaplarni ifodalaydi.

2. Ohang, talaffuz usuli, talaffuz mazmuni bilan uyg'unlashib aniq maqsadni ko'rsatib beradi va u nutqda muhim rol o'ynaydi, u ovozning tanlangan tembriga qarab gapning ma'nosini o'zgartirishga yordam beradi. Nutq ohanggi talaffuz jarayonida sintaktik va emotsional funktsiyalarni bajaradigan gapning ritmik-melodik qismiga aylanib, og'zaki nutqning zaruriy sharti, yozma nutqda tinish belgilari bilan beriladi. Tilshunoslikda bo'g'in, so'z va gapdagi ovoz ohangini o'zgartirish ma'nosida qo'llaniladi. Uning komponentlari inson nutqining ajralmas qismidir.

Nutqda intonatsiya bo'lmasa, zerikarli, quruq va jonsiz ko'rinadi. Har qanday rivoyatni jonli va ifodali qilish tovush to'lib-toshgan holdagina mumkin bo'ladi. Shuning uchun nutq jarayonining ritmik-melodik tomoni deb ataladi.

Intonatsiyaning tor ma'nosi ovoz ohangidagi tebranishlarni anglatadi, bu odatda og'zaki nutqning ohangi bilan belgilanadi. Kengroq tushuncha ohang tushunchasini kengaytiradi, uni pauzalar, temp va nutq oqimining boshqa komponentlari, ovoz temбри va uning ritmigacha to'ldiradi. Urg'u iloji boricha ularga tegishli. Bunday holda, biz nafaqat og'zaki, balki uning mantiqiy versiyasi haqida ham gapiramiz. Nutq oqimida bitta so'zni ajratib ko'rsatish jumlaning butun ohangini sezilarli darajada o'zgartiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tilshunoslik asoslari I. Yoldashev, O'Sharipova Toshkent "Iqtisod-Moliya" 2007
2. Tilshunoslikka kirish A.Sodiqov, Abduazizov. M, Irisqulov Toshkent "O'qituvchi" 1981
3. Saidahmadovna, I. M. (2022). Deictic Features of Verbs in French and Uzbek Languages. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 10, 35-37.
4. Ишанжанова, М. С., & Маттиев, А. О. (2016). НАУЧНАЯ ОБРАБОТКА ТЕКСТОВ ПО СПЕЦИАЛЬНОСТИ НА ЗАНЯТИЯХ СО СТУДЕНТАМИ НЕЯЗЫКОВЫХ ВУЗОВ. *Современные исследования в области преподавания иностранных языков в неязыковом вузе*, (5), 75-82.
5. Saidahmadovna, I. M., & Madaminovich, K. U. (2022). Expression Of Personal Deixis In Uzbek And French Languages. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 5, 140-143.
6. Oripovna, A. I. (2022). TURLI TIZIMLI TILLARDA TAKRORIY NOMLASHNING SEMANTIK MUNOSABATLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 228-232.
7. Maxammadjonovna, S. L. (2022). L'ENSEIGNEMENT DE LA LITTERATURE EN DIDACTIQUE DU FLE. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(4), 155-157.

8. Maxammadjonovna, S. L. (2022). BOSHLANG'ICH SINIF YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING AQLIY RIVOJLANISHI VA ULARGA CHET (FRANSUZ) TILI FANINI O'QITISHDA KOMPYUTER TEHNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH, HAMDA UNING PSIHOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(12), 442-447.